

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING LUG'ATBOYVLIGINI OSHIRISHDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY METODLARNING QIYOSIY TAHLILI

Mamadjanova Sevara Xaydarbekovna

Fan va texnologiyalar universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirish masalasi yoritilgan. Lug'at boyligini rivojlantirish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish, fikrlash doirasini kengaytirish hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda lug'at ustida ishlashning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilari, lug'at boyligi, nutqni rivojlantirish, og'zaki nutq, yozma nutq, fikrlash doirasi, muloqot madaniyati, yosh xususiyatlari, psixologik xususiyatlar, ta'lim jarayoni.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема расширения словарного запаса учащихся начальных классов. Развитие словарного запаса имеет важное значение для формирования устной и письменной речи, расширения кругозора мышления, а также развития культуры общения. В исследовании проанализирована роль работы со словарным запасом в учебном процессе с учётом возрастных и психологических особенностей учащихся начальных классов.

Ключевые слова: Учащиеся начальных классов, словарный запас, развитие речи, устная речь, письменная речь, кругозор мышления, культура общения, возрастные особенности, психологические особенности, учебный процесс.

Annotation: This article examines the issue of vocabulary development in primary school students. Developing vocabulary plays a crucial role in forming oral and written speech, expanding the scope of thinking, and fostering communication skills. The study analyzes the role of working on vocabulary in the educational process, taking into account the age and psychological characteristics of primary school students.

Keywords: Primary school students, vocabulary development, speech development, oral speech, written speech, thinking scope, communication skills, age characteristics, psychological characteristics, educational process.

Kirish: Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqini rivojlantirish va lug'at boyligini oshirish eng muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichida bujarayon alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda bolaning tilga oid ko'nikmalari, fikrlash qobiliyati va muloqot madaniyati shakllanadi. Lug'at boyligi yetarli bo'lgan o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalay oladi, matn mazmunini to'g'ri tushunadi va dars jarayonida faol ishtirok etadi. Shaxsiy kuzatishlarim va pedagogic tajribam shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirish uzluksiz va tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda interfaol usullar, didaktik o'yinlar, matn bilan ishlash hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda samarali deb hisoblagan metodlarimni yoritish va ularning amaliy ahamiyatini ko'rsatib berishni maqsad qildim.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirish masalasi ta'lim jarayonida muhim o'rin egallaydi. Mazkur masala

yuzasidan pedagog va metodist olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu bo'limda boshlang'ich ta'limda lug'at boyligini rivojlantirishga oid ilmiy adabiyotlar va metodik manbalarga qisqacha sharh beriladi. Jumladan, K. Qosimova, S. Matchonov va T. G'afforovalarning "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" nomli asarida boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy metodlari batafsil bayon etilgan. Mualliflar lug'at ustida ishlashni ona tili darslarining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, so'zlarni kontekstda o'rgatish, matn asosida mustahkamlash metodlarining samaradorligini asoslab beradi.[1] Mening fikrimcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirish jarayoni ta'limning eng muhim va poydevor bosqichlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu davrda bolaning nutqi, fikrlash qobiliyati va til madaniyati shakllanadi. K. Qosimova, S. Matchonov va T. G'afforovalarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, lug'at ustida tizimli va maqsadli ishlash o'quvchining nafaqat so'z boyligini, balki mustaqil fikrlash hamda nutqiy faolligini ham rivojlantiradi.

Shaxsiy kuzatishlarimga ko'ra, so'zlarni faqat yodlash orqali emas, balki ularni matn, suhbat va hayotiy vaziyatlar asosida o'rgatish yanada samarali natija beradi. Ayniqsa, yangi so'zlarning ma'nosini kontekstda ochib berish, ularni gap va kichik matnlarda qo'llatish o'quvchilarning lug'atini faol lug'atga aylantirishga xizmat qiladi.

J. Yo'ldoshev va S. Usmonovlarning "Pedagogika va psixologiya asoslari" asarida esa o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkilot masalalariga e'tibor qaratilgan. Mualliflar boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda nutq va tafakkur o'zaro chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlab, lug'at boyligini oshirish fikrlash rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslaydi.[2] Mening fikrimcha, J. Yo'ldoshev va S. Usmonovlarning qarashlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirish masalasining psixologik asoslarini chuqur ochib beradi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda nutq va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, lug'at boyligining kengayishi ularning fikrlash jarayonini faollashtiradi hamda mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Shaxsiy fikrimga ko'ra, agar o'qituvchi o'quvchilarning yosh va

psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda lugʻat ustida ishlasa, taʼlim jarayoni yanada samarali kechadi. Xususan, bolalarning qiziqishi va idrok darajasiga mos soʻzlar bilan ishlash, ularni tasvirlash, taqqoslash va umumlashtirishga yoʻnaltirilgan topshiriqlar berish fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, lugʻat boyligini oshirish faqatgina tilni oʻrgatish bilan cheklanmasdan, balki oʻquvchilarning intellektual rivojiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik omil sifatida qaralishi lozim, deb hisoblayman.

Jumladan, N.Raxmatullayevaning "Boshlangʻich taʼlimda nutq oʻstirish metodikasi" nomli ilmiy ishlarida oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan metod va usullar tizimli ravishda yoritilgan. Muallif didaktik oʻyinlar, suhbat va matn bilan ishlash metodlarining lugʻat boyligini oshirishdagi ahamiyatini amaliy misollar asosidakoʻrsatib beradi. [3] Mening fikrimcha, N. Raxmatullayevaning ilmiy ishlari boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqini rivojlantirishda amaliy metodlarning muhim oʻrnini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, ogʻzaki va yozma nutqni birgalikda rivojlantirishga qaratilgan yondashuv oʻquvchilarning lugʻat boyligini kengaytirishda samarali natija beradi. Shaxsiy kuzatishlarimga koʻra, didaktik oʻyinlar orqali yangi soʻzlarni oʻrgatish bolalarning faolligini oshiradi va soʻzlarni oson eslab qolishlariga yordam beradi. Suhbat va matn bilan ishlash jarayonida esa oʻquvchilar yangi soʻzlarni kontekstda qoʻllashni oʻrganib, ularning maʼnosini chuqurroq anglaydi. Bu esa passiv lugʻatning faol lugʻatga aylanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, Raxmatullayeva tomonidan taklif etilgan metod va usullarni ona tili darslarida tizimli qoʻllash boshlangʻich taʼlimda nutqiy rivojlanishni taʼminlovchi samarali pedagogik vosita, deb hisoblayman.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining lugʻat boyligini oshirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada oʻrganilgan boʻlsada, zamonaviy metod va texnologiyalarni uygʻunlashtirgan holda qoʻllash bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida lug'at boyligini oshirish jarayonini tahlil qilish va samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlashga qaratilgan.

1. Nazariy metodik tahlil. Tadqiqotning nazariy qismi lug'at boyligini oshirishning pedagogik yondashuvlarini o'rganishga asoslanadi. Maqolada so'z boyligini mustahkamlash uchun interaktiv o'yinlar, vizual materiallar va kontekstda so'zlarni o'rgatish tavsiyalari keltirilgan. Ushbu yondashuvlar til o'rganish jarayonini kuchaytiradi.

2. Empirik amaliyot - tadqiqotda empirik yondashuv sifatida dars jarayonida interaktiv mashg'ulotlar va o'yinlar orqali lug'at boyligini oshirish natijalari qayd etildi. Maqola muallifi o'quvchilarning yangi so'zlarni qabul qilish va foydalanish ko'nikmasini kuzatish orqali metodlarning samaradorligini tahlil qiladi.

3. Ma'lumot yig'ish va tahlil - tadqiqotning amaliy qismida o'quvchilarning lug'at boyligi bilan bog'liq faoliyatlari: o'yinlar, so'z kartochkalari, gruppalar bilan ishlash va boshqalar kuzatilib, tahlil qilindi. Bu jarayonlar olingan ma'lumotlar asosida statistik va sifatli tahlil bilan qo'llanildi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda qo'llanilgan metodlarning samaradorligi tahlil qilindi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, interfa olmetodlar va didaktik o'yinlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini sezilarli darajada oshiradi. Shu boisdan tadqiqotda quyidagi metodlar tahlil qilindi:

1. Matn bilan ishlash metodidan foydalanilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning notanish so'zlarni anglash va ularni nutqda qo'llash ko'nikmalari yaxshilanadi. O'quvchilar yangi so'zlar ishtirokida gap va kichik matnlar tuzishda avvalgiga nisbatan kamroq xatoga yo'l qo'yishadi. Bu esa ularning yozma nutqi rivojlanishiga yordam beradi.

2. Zangi ro'yini - o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, tezkor fikrlash va og'zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik o'yindir. O'yin jarayonida

o'quvchilar so'zlarni ketma-ket bog'lab, zanjir hosil qiladilar. Misol uchun: O'qituvchi birinchi so'zni aytadi, masalan daraxt keying o'quvchi oldingi so'zning oxirgi harfi bilan boshlanuvchi yangi so'z aytadi, (daraxt → tog'). O'yin shu tartibda davom etadi. So'z topaolmagan o'quvchi navbatni o'tkazadi yoki o'yindan chiqadi.

3. Ortiqcha so'zni top o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, so'z ma'nolarini farqlash hamda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan interfaol didaktik metoddir. Ushbu metodda o'quvchilar berilgan so'zlar orasidan ma'no jihatidan guruhga mos kelmaydigan so'zni aniqlaydilar. Metodning bajarilish tartibi: O'qituvchi doskaga yoki kartochkalarga 4–5 ta so'z yozadi. O'quvchilarga so'zlarni diqqat bilan o'qish topshiriladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni topadilar va tanlovini izohlashadi. O'qituvchi to'g'ri javobni umumlashtirib, yangi so'zlar ma'nosini mustahkamlaydi. Misol: olma, nok, banan, sabzi. Ortiqcha so'z: sabzi chunki qolganlari meva, sabzi esa sabzavot bo'lgani uchun.

4. So'zdan gap o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, yangi o'rganilgan so'zlarni nutqda faol qo'llash hamda gap tuzish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metoddir. Ushbu metod o'quvchilar so'z ma'nosini chuqur anglab, uni og'zaki va yozma nutqda mustaqil qo'llashga o'rganadilar.

Metodning bajarilish tartibi, o'qituvchi yangi yoki mustahkamlanadigan bitta so'zni tanlaydi. So'zning ma'nosi tushuntiriladi, o'quvchilarga shu so'z ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi. Tuzilgan gaplar tinglanadi va to'g'ri, aniq ifodalangan gaplar rag'batlantiriladi. Misol: berilgan

so'z mehnat o'quvchi gapi: Mehnat qilgan odam doimo muvaffaqiyatga erishadi kabi javob berishlari kerak bo'ladi.

5. Rasm asosida hikoya tuzish metodi. Bu metod o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, mantiqiy fikrlash va ijodiy nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Metodda o'quvchilarga bir yoki ketma-ket bir nechta rasm yoki slaydlar ko'rsatiladi va ular shu tasvirlar asosida kichik hikoya tuzadilar.

Undan tashqari qisqa savol-javoblar, soʻzlarni tartiblab berish, rolga kirib soʻzlash, tushurib qoldirilgan soʻz, lugʻat diktanti kabi metodlardan foydalansak boʻladi.

Kuzatishlar natijasida koʻrgazmali vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan darslar oʻquvchilarda yuqori qiziqish uygʻotgani maʼlum boʻldi. Multimedia materiallari orqali oʻrgatilgan soʻzlar oʻquvchilar xotirasida mustahkamroq saqlanib qoladi. Umuman olganda, oʻtkazilgan tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, lugʻat boyligini oshirishda metodlarning uygʻun holda qoʻllanilishi yuqori samaradorlikka olib keladi. Tadqiqot davomida oʻquvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va soʻz boyligidan foydalanish darajasida ijobiy oʻzgarishlar kuzatiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining lugʻat boyligini oshirish – pedagogika va til oʻrgatishning eng muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, lugʻat boyligini rivojlantirish nafaqat oʻquvchilarning nutq va yozma ifoda koʻnikmalarini shakllantiradi, balki ularning tafakkur doirasi, ijodiy fikrlashi va mustaqil muloqot qobiliyatini ham sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, multimediya vositalaridan foydalanish, visual materiallar va interaktiv mashqlar dars jarayonini boyitadi va oʻquvchilarni motivatsiyasini yanada oshirdi. Bu esa nafaqat lugʻat boyligini oshirish, balki bolalarning diqqatini jamlash, fikrlash jarayonini chuqurlashtirish va mustaqil ijodiy ishfaoliyatini ragʻbatlantirishga xizmat qiladi. Tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, boshlangʻich sinf pedagogi uchun lugʻat boyligini oshirish metodlarini tanlashda oʻquvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, interfaol va amaliy yondashuvlarni qoʻllash muhimdir. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni multimedia va interaktiv mashqlarni dars jarayoniga tatbiq etish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining lugʻatboyligini oshirish masalasi nafaqat ona tili fanining, balki umumiy taʼlimning samaradorligini belgilovchi asosiy element hisoblanadi. Oʻquvchilarning nutq va lugʻat koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli va uygʻun metodlar taʼlim sifatini sezilarli darajada oshiradi hamda bolalarning fikrlash,

muloqot va ijodiy faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, lug‘at boyligini rivojlantirish masalasi boshlang‘ich ta’limda doimiy e’tiborda bo‘lish ilozim.

Ushbu kichik izlanishimiz asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Darslarda yangi metodlarni bosqichma-bosqich joriy etish, o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish.
- Har bir yangi so‘zni rasm yoki videolar bilan mustahkamlash, ularni amaliy vazifalarda ishlatish.
- O‘quvchilarga qisqa hikoya, matn yoki gap tuzdirish orqali lug‘atni kengaytirish.
- So‘zlarni mantiqiy guruhlash va farqlash mashqlarini muntazam o‘tkazish.
- Lug‘at boyligini oshirish mashg‘ulotlarini dars jadvaliga kiritib, ularni tizimli ravishda amalga oshirish.

Ushbu tavsiyalar pedagoglarga o‘quvchilarning so‘z boyligini mustahkamlash va nutqini rivojlantirishda qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova, K., Matchonov, S., & G‘afforova, T. (2018). Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Ta’lim nashriyoti. (25–60)
2. Yo‘ldoshev, J., & Usmonov, S. (2017). Pedagogika va psixologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. (112–145)
3. Raxmatullayeva, N. (2016). Boshlang‘ich ta’limda nutq o‘stirish metodikasi. Toshkent: Fan va ta’lim nashriyoti. (40–78)
4. Tolipova, Z. (2025). O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish uchun metodik tavsiyalar. *Yosh olimlar*, 3(18), 126–129.